

RAQAMLI ASRDA KITOB O'QISH MADANIYATINING PASAYISH MUAMMOSI

O'roqova Bahora Baxrom qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
O'zbek tili va adabiyoti Universiteti masofaviy
ta'lim fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 4-bosqich talabasi
email. bahorafarmonova68@mail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida kitob o'qish madaniyatining pasayish muammosi tahlil qilinadi. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanishning ortishi kitobxonlikka bo'lgan qiziqishning kamayishiga olib kelayotgani yoritiladi. Shuningdek, ushbu muammoning sabablari va uni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, raqamli asr, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviyat.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson hayotiga katta o'zgarishlar olib keldi. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kengaydi. Biroq bu jarayon kitob o'qish madaniyatining pasayishiga olib keldi. Natijada yoshlarning bilim olish manbalari o'zgarib bormoqda. Shu bilan birgalikda jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatining pasayishiga olib kelmoqda. Smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning kundalik hayotga keng qo'llanishi qisqa, tez iste'mol qilinadigan kontentga bo'lgan qiziqishni oshirib, kitob mutolaasi uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli diqqat va tafakkurni susaytirmoqda. Bu holat intellektual rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, chuqur fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarining zaiflashishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish insonning sog'lig'i uchun zararlidir. Oqibatda inson ko'z nurini yo'qotadi, uyqu buziladi, stress kabi muammolarga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekran qarshisida ko'p vaqt o'tkazish zavq uchun kitob o'qish darajasining pasayishi bilan bevosita bog'liqdir. Kitobxonlik madaniyatining qisqarishi yoshlarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tanqidiy fikrlash qobiliyatining zaiflashishiga hamda noto'g'ri axborot va yolg'on ma'lumotlarga tez ishonish holatlarining kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu jarayon empatiya darajasining pasayishi, ijtimoiy birlikning susayishi orqali namoyon bo'ladi.

Kitob mutolaasi esa insonni to'g'rilik sari yetaklovchi, insonning fikrlash salohiyatini oshiruvchi, insoniylik tuyg'ularini uyg'otuvchi bir vositadir. U doim insonlarga yordam beradi, unda hech qanday yolg'on ma'lumot, fikrlarni chalg'ituvchi

omillar yo‘q. Shuning uchun xalqimizda “kitobdan yaxshi do‘st yo‘q” maqoli bejiz aytilmagan.

Yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish zamonaviy yondashuvlar, innovatsion usullar va rag‘batlantirish tizimi orqali amalga oshirilishi zarur. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali kitobxonlikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Yoshlarni kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun „Yosh kitobxon“ loyihalari joriy etildi. G‘olib insonlarga mukofotlar belgilandi.

Yurtimizda yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejiz emas. Bu borada “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli qarori qabul qilingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori yurtimizda yoshlarimizga yaratilayotgan sharoitlardan dalolatdir.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov yoshlarning tarbiyasi haqida so‘z yuritib, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi”, — deb ta‘kidlaganlar.

Bundan tashqari, yurtimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev kitob haqida shunday fikr yuritganlar: “Odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma‘naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko‘p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va eng ta‘sirchan vosita bu kitob emasmi? Men shunga aminmanki, kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma‘naviyatga erishib bo‘lmaydi. Ko‘p kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”, — deb ta‘kidlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, insonlar internet tarmoqlariga bog‘lanib qolmasdan kitob mutolaa qilishlari kerak. Chunki kitob mutolaasi har qanday vaziyatda insonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, uni komil inson darajasida yuksalishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Sh. Mirziyoyev. “Buyuk xalqimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”
- “Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot” jurnali
- edu.uz
- Soatova Rayhona “Kitobxonlikka targ‘ib qilishning zamonaviy yo‘llari” maqolasi